

## YAKKAKURASH SPORT TURLARINI TARAQQIY ETISH MASALALARI

Sodiqov Jasurbek Jaxongir O‘g‘li  
Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda yakkakurash sport turlari faol rivojlanib kelmokda bu esa yukori malakali yakkakurashchilar sport maxoratining muvaffakiyatli takomillashuvini ta‘minlovchi yo‘llarni izlab topishni dolzarb kilib qo‘ymoqda.

**Kalit so‘zlar:** Yakkakurash, individual, sport, texnik-taktik, poydevor.

**Abstract:** Martial arts are actively developing in our country, which makes it urgent to find ways to ensure the successful improvement of sports skills of highly qualified martial artists.

**Key words:** single combat, individual, sport, technical-tactical, foundation.

**Аннотация:** В нашей стране активно развиваются боевые искусства, что делает актуальным поиск путей, обеспечивающих успешное совершенствование спортивного мастерства мастеров единоборств высокой квалификации.

**Ключевые слова:** единоборство, индивидуальный, спорт, технико-тактический, фундамент.

Birinchi navbatda, bu texnik-taktik maxoratni takomillashtirishga taalluqlidir, chunki tayyorgarlikning bu tomoni bo‘lg‘usi olimpiyachilar zaxirasini tashkil etuvchi yakkakurashchilar maxoratining eng nozik tomoni xisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktyabrdagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida” PQ-3306-sonli Qarorining qabul kilinishi xam muammolarni chuqur o‘rganish uchun xizmat qilmokda.

Xozirgi vaqtda xar xil sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalari aloxida jamoa sifatida Olimpiya, Osiyo o‘yinlarida va jaxon chempionatlarida katnashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Yakkakurash sport turlari o‘quv janglari samaradorligini oshirish muammosi 20-22 yoshdagi yukori malakali sportchilarda muxim axamiyatga ega, chunki bu paytda texnika asoslarini o‘rgatish yakunlanadi va texnik-taktik tayyorgarlik poydevori shakllana boshlaydi. Shu bilan birga, xarakatlarning bazaviy tarkibi xamda ularni mashg‘ulot janglari va musobakalarda qo‘llashning taktik tarkiblari ko‘rsatkichlari hozirgi paytga qadar chukur taqqoslab ko‘rilmagan. Ularning umumiy va individual tarkiblari o‘rtasidagi farqlar tizimlashtirilmagan, shuningdek, yukori malakali sportchilarda mashg‘ulot janglaridagi xarakatlarning qo‘llanilish samaradorligini oshirishga qaratilgan va ularni musobaqa sharoitiga ko‘chirish jarayonini tezlashtirish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy pedagogik ko‘rsatmalar ishlab chiqilmagan xamda tajribada asoslab berilmagan.

Oldinga qo‘yilgan muammolar yakkakurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini jadallashtirish uchun ularning mashg‘ulot xamda musobaka faoliyatining ta‘sir belgilarini ilmiy jixatdan izlab topish extiyojini belgilab beradi.

Yukori shiddat bilan ajralib turuvchi musobakalarda sportchilarning muvaffaqiyat qozonishga bo‘lgan ishonchining kamayishi bajarilayotgan faoliyatning ob‘yektiv qiyinchiliklariga hamda shaxsning individual xislatlariga, shuningdek, kurashish shaklining o‘zgartirilishiga bog‘lik. Faollikning pasayishi axborot tanqisligining ortishi va uning ishonish yoki gumonsirash shaklidagi sub‘yektiv aks etishi oqibati xisoblanadi. Tayyorlanish

vositalarning taktik moyiyati ko’pgina tarkiblarga bog’lik bo’ladi. Ular orasida xarakat kilishga tayyor turish (maksadni ko’zlagan tarzda, ekspromt tarzda, maksadli-ekspromt tarzda), olishuvda tashabbusni namoyon qilish darajasi (birinchi maksad, keyingi maksadlar) va xarakatlarni bajarayotgan sportchilarning reaksiya kilishlari xususiyatlari (shartlangan tarzda tanlab, bir xarakat dan boshqasiga o’tish bilan). Taktik tavsiflar yakkakurashchilarning yakkakurash vositalarini tayyorlash va qo’llash jarayonidagi psixik faoliyatining ma’lum bir tomonlarini aks ettiradi.

Yukori malakali yakkakurashchilarning kurashish xarakatlari taxlili shuni ko’rsatadiki, olishuvlar boshqa vositalarga nisbatan keng qo’llaniladi va juda natijali xisoblanadi. Musobakalarda xujumlarga qarshilik qilish vositalari orasida raqibdan ilgariroq qarshi xujum bilan xarakat qilishga o’rinish katta xajmlarda qo’llaniladi. Bu qarshi xujum xarakatlarining qo’llar yoki gavda bilan ximoyalanihga nisbatan texnik jixatdan oson bajarilishi bilan tushuntiriladi. Biroq musobaqalarda qarshi xujumlarning natijaliligi mashg’ulotdagi erkin kurashga qaraganda ancha past. Musobaqa janglarida umumiy sondan 80%ga yaqini o’z vaqtida emas, kechikish bilan bajariladi. Qarshi xujumlar, odatda, oddiy oldindan ko’zlangan, shartlangan va bir xarakatdan ikkinchisiga o’tish bilan bajariladigan xarakatlardir. Karshi ximoyalanihslarning qo’llanilish xajmi katta emas, bu ularni bajarish o’ta qiyin ekanligi bilan bog’lik. Ma’lumki, yakkakurash sport turlarida oddiy xarakatning bajarilish vaqti insonning oddiy xarakat reaksiyasi vaqtiga qaraganda kamrok bo’ladi.

Ma’lumotlarga asosanib xulosa kilish mumkinki, mashg’ulot va musobaqada qo’llaniladigan, turli xil shiddat bilan ajralib turuvchi mashg’ulot vositalar to’plamini taqqoslash ma’lum bir qonuniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Ularni xisobga olish mashg’ulot va musobaka jarayonining takomillashishiga xizmat qiladi.

Yukori malakali yakkakurashlarni texnik-taktik takomillashtirish jarayonini optimallashtirish maqsadida mashg’ulotdagi mashqlarning ixtisoslashtirilishini oshirish zarur. Buning uchun ularning o’quv sharoitlarida bajarilishini musobaqa sharoitlariga maksimal darajada yakinlashtirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ataev A.K. “O’zbekiston jismoniy madaniyat institutlari va jismoniy tarbiya fakultetlari uchun o’zbek milliy kurashi dasturi”, T., 1992 y. 4.
2. Absattorov A.A., Istomin A.A. “Dzyudo kurashi”. Fizkultura institutlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. -T. : Ibn Sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi 1993 yil.
3. Kerimov F.A.«Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti» Toshkent, 2005 y.8.